

tilshunoslikda olib borilayotgan har bir izlanish nafaqat xitoy adabiy tilining boyib borishiga balki, shu tilda muloqot qiluvchi xalq ma'naviyatiga ham ta'sir ko'rsatishiga aminmiz. Mana shunday mavzu va g'oyalarni xitoy va boshqa xorijiy tillar bilan hamohang holda o'rganish har bir tadqiqotchi va o'quvchilar uchun asos vazifasini bajarib, o'rganilayotgan obyektini yanada takomillashib, sayqallanib borishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.L.A.Sultanova Xitoy tili leksikologiyasi Toshkent,2019.111b
- 2.刘月华《实用现代汉语语法》- 北京, 1986年。340页Liu Yue-hua. -Hozirgi xitoy tili amaliy grammatikasi. Pekin, 1986. 340b
- 3.Karimov A.A Xitoy tilining asosiy grammatik birliklari.Toshkent,2001 y.
- 4.王波 “王力文集”，第三卷，山东教育出版社出版，1995，678页Wang Bo Wangli to'plami. 3-jild. – Shandong Ta'lim nashriyoti, 1995. 678b.
- 5.孙常叙 “汉语词汇”，吉林人民出版社，1996年，288页Sun Changxu. Xitoy tili leksikasi. – Jilin Xalq nashriyoti, 1996. 288 b.
- 6.张静 “词汇教学讲话”，武汉: 湖北人民出版社，1997年。178页Zhang Jing. Leksikologiya ma'ruzalari. – Wuhan, Hubey Xalq nashriyoti, 1996. 178 b.
7. 孙良明 “同义词的性质和范围”，语文学习，1998年。89页Sun Liangming. Sinonimlarning xususiyatlari va qo'llanish doirasi. 1998. 89 b.
8. <http://www.baidu.com>

### MAKTAB YOSHIGACHA BO'LGAN BOLALARNI INGLIZ TILIDA O'QISHGA TAYYORLASH

*Fotima Asqarova –  
Oltinko'l tumani,  
3 – maktab boshlang'ich maktab o'qituvchisi  
Muhayyo Ahmedova –  
Andijon davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi*

**Annotation:** This article deals with teaching foreign languages in early age. The problems which the teachers encounter during the working with children can be solved by discussing among the teachers.

**Key words:** CEFR, reading skills, scanning, scimming, intensive reading, smoothly, technical development, visual, auditorial, time management

**Аннотация:** В данной статье речь идет об обучении иностранным языкам в раннем возрасте. Проблемы, с которыми сталкиваются педагоги в работе с детьми, можно решить путем обсуждения среди педагогов.

**Ключевые слова:** СЭФР, навыки чтения, сканирование, беглый просмотр, интенсивное чтение, плавность, техническое развитие, зрительное, слуховое, тайм менеджменту

**Анотасија:** Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarini o'rgatish bilan bog'liq. Bolalar bilan ishlash jarayonida o'qituvchilar duch keladigan muammolarni o'qituvchilar o'rtasida muhokama qilish orqali hal qilish mumkinligi va chet el mutaxassislarining fikrlari haqida gap boradi.

**Калит со'злар:** CEFR, o'qish malakasi (reading skills), scanning, scimming, intensive o'qish, ravon, texnik taraqqiyot, ko'rib o'rganish, tinglab o'rganish, vaqt tejash.

Biz bilamizki, bola birinchi sinfga borib oq ingliz tili darslarida saboq ola boshlaydi. Bu haqda gap ketganda mutaxassislar o'rtasida munozaralar va o'zaro norozichiliklar kelib chiqqanini guvohi bo'lamiz. Bola xali o'z ona tilida o'qishga tayyor emasku, qanday qilib birdaniga bolani ikkinchi o'zi uchun yot bo'lgan chet tilida o'qishni o'rgata olamiz? Bu bolaning asab tizimiga salbiy ta'sir etmaydimi? Bu va bu kabi savollar ingliz tili mutaxassislarini qiynab kelayotgani hech kim uchun sir emas. Hozirda CEFR bo'yicha A1 darajadagi bolalarni ingliz tiliga o'rgatish bo'yicha bir qator sa'y harakatlar qilinmoqda. Bunga misol qilib, ADU Xorijiy tillar fakulteti Ingliz tili va adabiyoti o'qituvchilari dotsent M.Abduvaliyev, Z. Vaxobjonova, S. Sodiqovalar va M.Xalimovalarning maktab yoshigacha bo'lgan bolalar uchun "Step by step" kitobi yorqin misol bo'la oladi. Bundan tashqari biz oliy ta'lim mutaxassislari malaka oshirish kurslarida boshlang'ich sinf ingliz tili o'qituvchilari bilan uchrashib, ularning duch kelayotgan qiyinchiliklari ustida fikr almashib va tajriba almashib kelayapmiz. Biz mutaxassislar bolalar uchun muhim bo'lgan ayniqsa mana shu dolzarb pallada juda ehtiyot bo'lmog'imiz darkor.

Bu maslala bo'yicha chet el mutaxassislarining ham fikrlarini o'rganib ularning yetuk tajribalaridan o'zimiz uchun foydali bo'lgan tomonlarini qayta ishlab chiqib amaliyotga tatbiq etsak yomon bo'lmaydi.

O'qish ko'nikmalarini (reading skill) rivojlantirish hozirgi kunda eng muhim masalalardan biri bo'lib qolgan. Xattoki yuqori darajadagi talabalar bilan ham o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish ancha mushkul masala, chunki ular "scanning", "scimming" va "intensive reading" kabi mahoratlar bilan hali ko'pchiligi tanish emas.

Biz maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni hali o'qishni umuman o'rganmaganligini hisobga olgan holda, ba'zan maktabga hali bog'chalarga bormagan, umuman maktab tayyorgarligini ko'rmagan bolalar ham kelishini unutmashimiz kerak. Bu muammoni o'rgangan sarimiz holatni shuncha yaxshirioq tushuna boramiz.

Maktabgacha bo'lgan muassasalarda bolalar umuman o'qishni bilmaydi. Biz ularni nafaqat o'z ona tilida balkim, ingliz tilida ham o'qishga o'rganishga tayyorlashimiz kerak. Bu yoshdagi bolalarda o'qishga tayyorgarlik ko'rish uchun qo'llay oladigan ulkan potentsial mavjudligini unutmashimiz kerak. Ular tovushlarni aniq ajrata oladigan ularning quloqlari, rang va shakllar o'rtasidagi farqlarni ko'ra oladigan ko'zlari, butun olamni o'rganishga tayyor turgan qiziqishlari va nihoyat teleko'rsatuvlar, ularning ota-onalari sotib olib beradigan turli xil rasmi kitoblar va o'yinchoqlardan iboratdir. Hozirgi kunda bolalar vizual, sensorlik va auditorial tajribalarning keng ko'lamiga egadirlar va ular maktablarga kelganlarida ingliz tilida to'rt – beshta ranglarni be'malol bilyaptilar va ba'zi bir hayvonlarnin nomlarini ingliz tilida ayta oladilar.

Bunday keng ko'lam potentsialiga ega bo'lgan bolalar o'qishga tayyorgarlik ko'rishda haqiqiy o'qishga o'rgatish muammolariga duch kelgungacha umuman qiyinchilik ko'rmaydilar. Agar ularning tayyorgarlik faoliyatlarini, ya'ni rasmlar bilan o'qish, chapdan o'ngga bo'lgan

harakatlarga ko‘nikma hosil qildirilsa, harakatlar bilan she‘rlarni tushuntirishga harakat qilib rolli o‘yinlar bajarsalar, bir vaqtning o‘zida ham ko‘rib, tinglab va eshitib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirib borsa, nafaqat o‘qishga balkim gapirish va yozishga ham tayyor bo‘lib qoladilar. Bu bilan biz bolalarni o‘z yoshi va qiziqishlariga mos keladigan so‘z boyligi bilan ham ta‘minlaymiz.

Biz mutaxassislar qaysi darajada dars berishimizdan qat‘iy nazar bu masala bo‘yicha doimo hamkorlikda ish ko‘rmog‘imiz darkordir. Maktabgacha yoshigacha bo‘lgan talabalar til ko‘nikmalarini o‘rganishi ularning kelajakdagi bilim olishiga katta yordam beradi. Til o‘rganayotgan bolalarda tanqidiy moshohada va yaratuvchanlik qobiliyati kuchli bo‘ladi. Bir muammo shundaki, ularni o‘qitishda ‘time management’, ya‘ni vaqt sarfiga ham katta e‘tibor qaratishimiz kerak. Yosh talabalar jiddiy faolyat bo‘lgan darsga unchalik xohish bildirib kirmasligi mumkin. Ularning ko‘pchiligi hasli bolalik o‘yinlariga to‘ymagan quvnoq bolalardir. Bu holatda ularni majburan “Sen til o‘rganishing kerak!” “Sen katta, buyuk inson bo‘lib yetishishing kerak” – degan argumentlarimiz ularni bolalik dunyosi bilan erta hayrlashishga majbur qiladi va bu bola o‘zini bir oz baxtsizroq his qilishi mumkin.

Shuning uchun bolaning o‘yin holatidan jiddiy o‘qish faoliyatiga o‘tishi chet el mutaxassislarining fikricha “smoothly”, ya‘ni silliq, og‘riqsiz o‘tishi kerak. Bu ularning o‘qish va o‘rganish degan yangi faolytaga erkin kirib kelishiga va kelajakda hech qanday psixologik bosim ostida qolmasligiga yordam beradi.

Shu yerda savol tug‘iladi: “Nega buyuk allomalar yoshligidanoq ilmga qiziquvchan bo‘lgan? Bu holat bizning bolalarda kuzatilmaydi?” bunga bir qator ob‘yektiv va sub‘yektiv sabablar keltirishimiz mumkin. Hozirgi yoshlar rivojlangan texnika davrida yashamoqdalar. Texnik tarqqiyot bizga ko‘p qulayliklar bilan birga bolalarimizni bu qulayliklarga o‘rgatadigan noafzalliklar ham olib kelmoqda. Ular ongli ravishda hamma narsani tayyor olishga o‘rganib bormoqdalar. Shuning uchun darslarimiz ham ularning dunyo qarashlariga moslashishi shart.

Chet tili o‘rgangan bolalar, sekin-asta o‘z milliy qadriyatlarini ham unitib boradi. – degan fikrlar ham yo‘q emas. Bu masalaga qanday yondashishimizga bog‘liq. Agar talaba yoshligidanoq o‘z qadr-qimmatini, milliy mentalitetiga xos tarbiyalansa, chet el madaniyatini unga ta‘sir etishidan tashvishlanmasak ham bo‘ladi.

Dastlab o‘tilayotgan chet tili darslari autentik, ya‘ni bolani atrofini o‘rab turgan voqea hodisalarga bog‘liq bo‘lsa, u tilni ham oson o‘rganadi va uning o‘zga madaniyat ta‘siriga tushish xavfi kamayadi. Masalan, bolaga o‘zini atrofida uchraydigan narsalar (pen, pencil, ball, kite), oila a‘zolarining munosabatlari (my family members), turli milliy bayramlar (Navroz, Independence day), milliy taomlar (pilov, sumalak) va shunga o‘xshash mavzular ularni milliy ongini rivojlantoradi.

#### Adabiyotlar:

1. Muhayyo, A., & Kurbanova, S. (2023). NOTE TAKING METHODS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(5), 88-89.
2. Umidjon, M. (2022). MATERIAL AND SPIRITUAL HERITAGE OF ANCESTORS SAMPLES IN STORAGE. *Confrencea*, 1(1).
3. Parthasarathy Ramanujam “Ready for reading” *English Teaching Professional* 2009
4. *Practical English Language Teaching: PELT Young Learners* By Caroline Linse, David Nunan. 2022
5. Ilhomovich, A. A., & Gulchiroy, X. (2023). ENGLISH AS A MOTHER TONGUE. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(9), 1257-1259.